

**AHMAD DONISH SERQIRRA IJODIDA YOSH AVLOD KAMOLOTI MUAMMOLARI
VA ULARNING YECHIMLARI**

Murodaliyeva Shaxnozaxon Maxmudovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Naimov Ismat Nusratulloevich

Ilmiy rahbar

Kalit so'zlar: *Ahmad Donish, “Navodir ul vaqoe”, mutafakkir, oliy himmat, kasb-hunar, inson, koinot.*

Bugungi kunga kelib mamlakatimizdda iqtisodiy va siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalar, ta'lif-tarbiya tizimiga e'tibor kuchaydi. Yoshlarimizga Sharq mutafakkirlarini merosini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodga buyuk allomalarimizning ta'lif tarbiya to'g'risidagi fikr-mulohazalarini yetkazish yoshlar ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sharqning buyuk mutafakkiri qomusiy olim Ahmad Donish asarlarida

yosh avlod kamoloti muammolari va ularning yechimlari masalalariga alohida to'xtalgan. Ahmad Donish ijodi-bebaho xazina, ma'nolar chashmasi. Uni qancha ko'p o'qisak, yangicha ma'nolar kashf etamiz. Negaki, alloma asarlarida qalamga olinmay qolningan mavzuni o'zi yoq. Odob-ahloq deysizmi, jamiyat muammolarimi,. ayniqsa, eng yirik asari bo'lmish “Navodir ul vaqoe” asari tarkibiga kiruvchi

“Oqillarning mehnati va ahmoqlarning davlati haqida”, “Inson ahloqlari va ularning tabiat haqida”, “Nikoh odoblarining bayoni. Uylanishning shartlari hamda qaynona va kelin haqida”, “Farzandlarga vasiyat. Kasb-hunarning foydalari haqida” boblarida hamma davr uchun dolzarb bo'lgan yoshlarning ta'lif-tarbiyasi va kamoloti uchun zarur bo'lgan sifatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Darhaqiqat, ushbu asar XIX asrda yaratilgan yirik badiiy-falsafiy, publisistik asardir. Asarda muallif olamning abadiyligi Yer va Koinotning tuzilishi, ruh va uning tanga munosabati, ahloq, ijtimoiy hayot va uning masalalari ilmu hunar va ularning foydalari, bola tarbiyasi, tabiy fanlarga oid qarashlar kabi masalalarga atroficha to'xtaladi. Asarda kichik hayotiy hikoyalardan so'ng fors-tojikcha baytlarni keltirilishi asar jozibadorligini yanada oshiradi

Ahmad Donishning “Navodir ul vaqoe” asarining markazida inson turadi. Haqiqatda esa inson ulug' olamdir. Unga qaraganda inson kichik olamdir. Agar vijdonan o'lab qarasang, shu ko'rimsiz gavdangga qanchalik hikmat va maslahatlarning yashirinib yotganligini bilasan; bugunga emas, bu tubsiz dengizda yuz minglarcha haqiqatlar to'lqinlanib turganini ham aniq ko'rasan... 1

Allomaning nazaridagi inson ijodkor, qobiliyatli, bilimli, sabr-qanoatli, adolatli, halol, insofli mehnatsevar va kamtarlik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lgan

shaxs.Ahmad Donishning fikricha, Allohnинг irodasi bilan tog'u toshlar, o'simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so'z bilan autganda butun borliq yaratilgan. Ammo hazrati inson bu mo'jizaning eng asosiysidir. Shu tufayli dunyodagi barcha nozne'matlar, inson uchun yaratilgan. Aql farosat sohibi bo'lgan inson bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi lozim.

Qomisiy olim Ahmad Donish ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asar mazmunida surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifikatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yolda faoliyat olib borishiga ishonadi.

“Dunyoda ba'zi kishilar shundau oliy himmatli bo'ladilarki, xonlarning taxtiga qadam, podshohlarning tojiga nazar tashlamaydilar. Oy falagi ostidagi barcha narsalardan ko'z yumadilar, farishtalar olamiga qo'shilmaguncha hech to'xtamaydilar”¹. Ahmad Donishning fikricha; himmatli kishilar xalqning orasida obro'ga sazovar bo'ladi. Alloma odamlarni insoqli, saxovatli, adolatli, ahil va karomatli bo'lishga bir-biriga yordam berishga chaqiradi. Ahmad Donish odamlarga saxiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki o'zidagi aql bilim yordamida ularga ma'naviy ko'mak ham berish kerakligini aytadi.

Ahmad Donishning fikricha, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson mansabi, moddiy mavqeい jihatdan farqlanishi mumkin, ammo ijtimoiy yoki umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirib, uni namoyon etish nuqtai nazaridan hamma birdek mavqega egadir.

Inson har bir ishni maslahat bilan qilishi, shoshilmasdan fikr yurutishi, jamiyat qonun-qoidlariga amal qilishi doimo ko'pchilikning manfaatlarini himoya qilishi lozimligini ko'p bora ta'kidlaydi:

“ Har ishni haqiqatiga qarab amal qilsanglar, tirikchiliklaring tinchlik bilan o'tadi, hech kimga sarg'ayib egilmaysizlar”²

“ Yeyish ichishning foyda-zararlarini bilmaguncha, uning tagiga tushunmaguncha oziga qanoat qilmaysizlar”³

1-A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 154-b

2-A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 330-b

3-A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 330-b

Axmad Donishning uqtirishicha, ilm odamga baxt-iqbol baxsh etadi. Odam yaratilgandan so'ng uning tunganmas baxti ilm va ma'rifikatda bo'ladi. Ilm va ma'rifikat ruxning istagi bo'lib, rohatparastlik va dangasalik tilagidir. Ahmad Donish yoshlar bilimlarni bevosita kuzatish yo'lli bilan ongli ravishda egallashi, o'z fikri va bilimining

haqiqiyligiga ishonch hosil qilishi, o'rganiladigan hodisaning mohiyatini bilib olib, eng asosiy masalaga e'tibor berishi kerakligi g'oyalarini olg'a suradi.

Shunday qilib, buyuk mytafakkir va alloma Ahmad Donish o'z asarlarida inson va uning tarbiyalash masalalari, insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy- ahloqiy sifatlarni ulug'lashga chorlaydi.

Bugungi asosiy vazifamiz- mutafakkir Ahmad Donishning umrboqiy g'oyalaridan ibrat olish va uni hayotimizning mazmuniga aylantirish iborat.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Naimov.I. A covereje of the activitiec of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish // Internasianal Journal on integrated Education.

-Indonesia, 2021.Vol.4.No.5.-P.36-45 (Impact Factor: SJIF 7.242).

2. Naimov.I. Isuues of religious tolerance in the work of Ahmad Donish "Meyor-ul-tadayun"// International journal of Intellectual and Cultural Heritage.- Volume"Issue:02/2022. -P. 169-175.

3. Naimov. I. Meyor-ut-tadoyyun - diniy-axloqiy manba sifatida // Islom ziyosi-Toshkent, 2021. -№ 2.-B. 46-54.

4Ahmad Donish. "Navodirul vaqoe" ("Nodir voqealar"). – Toshkent: Fan, 1964 y.

– B. 361. (Ahmad Donish. Navodirul vaqoe / Rare events. - Tashkent: Science, 1964. - P. 361.)

5. Jamolova D. Domla Ikromning "Mashhur bid'atlar bayoni" asari haqida // Tarixning noma'lum sahifalari (Ilmiy maqolalar, hujjat va materiallar, xotiralar). VIII kitob. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 158- 192. (Jamolova D. About Domla Ikram's work "Statement of famous heresies" // Unknown pages of history (Scientific articles, documents and materials, memoirs).

Book VIII. - Tashkent: Akademnashr, 2018. - P. 158-192.)